MILLIY MA’RIFAT HAMDA DINIY TARBIYANING ADABIYOT DARSLARIDA NAMOYON BO’LISHI

Mo‘minova Cho‘lponoy Abdulvohidovna
Andijon mashinasozlik instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti,
cholponoym@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7708884

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarga diniy hamda ma`rifiy tarbiya berishning o`ziga xosligi ko`rib chiqiladi. Undan tashqari badiiy asarlar zamiridagi ilohiy matn tahlili vositasida singdirish yo‘llari haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: diniy-ma’rifiy ta’limot, islom ma’rifati, islom dini, til madaniyati, ibodat.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ И РЕЛИГИОЗНОГО ВОСПИТАНИЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Муминова Чулпоной Абдулвахидовна
Андижанский институт машиностроения
ассистент кафедры узбекского языка и литературы,

Аннотация: В данной статье рассматривается уникальность предоставления религиозно-педагогического образования учащимся на уроках литературы. Кроме того, речь пойдет о способах впитывания божественного текста в основу художественных произведений.
Ключевые слова: религиозно-просветительское учение, исламское просвещение, исламская религия, языковая культура, молитва.

REFLECTION OF NATIONAL ENLIGHTENMENT AND RELIGIOUS EDUCATION IN LITERATURE LESSONS

Muminova Chulponoy Abdulvokhidovna
Andijan Institute of Mechanical Engineering
Assistant of the Department of Uzbek Language and Literature,

Abstract: This article examines the uniqueness of providing religious and educational education to students in literature classes. In addition, it will be discussed about the ways of imbibing the divine text at the heart of the works of art.

Keywords: religious-enlightenment teaching, Islamic enlightenment, Yusuf-bek Haji, Islamic religion, language culture, prayer.

KIRISH

Ma`lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlar, ularni barkamol qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Maktabda farzandlarimizga ta’lim berish jarayonida tarbiya ham beramiz. Bugungi kunda diniy-ma’rifiy tarbiya, ya’ni o‘quvchilarning iymon-e’tiqodi, Yaratganni tanishi, bir musulmon farzandi sifatida amal kilishi kerak bo‘lgan ma’naviy me’yorlari ta’lim-tarbiya sohasining muhim jihatlarini tashkil etadi. Diniy- ma’rifiy tarbiyada boy ilmiy, adabiy merosimizning o‘rni beqiyos.

ADABIYOTLAR SHARHI

Azaliy vatanimiz Turkiston aziz avliyolar, donishmandlar, mutafakkirlar diyori. Hakim Termiziy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Moturidiy, Imom Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. X asrda samarqandlik mutafakkir, ”Imom al-Huda” (Hidoyat yo‘lining imomi) deb ulug‘langan Abu Mansur Moturidiy tomonidan asos solingan Moturidiya ta’limoti islom ma’rifatining asl manbalaridandir.

Yoshlarimiz diniy-ma’rifiy saviyasini oshirish oilada boshlanib, maktab ta’limida davom ettiriladi. Mazkur maqolamizda o‘quvchilarni ma’naviyatli, iymon-e’tiqodli, pokiza tabiatli qilib tarbiyalashda adabiyot darslarida singdirib boriladigan diniy-ma’rifiy ta’limot haqida fikrlaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Adabiyot darslarida o‘rganiladigan badiiy asarlar mazmunidagi diniy e’tiqod, diniy amallar va boshqa diniy tushunchalar tasvirini tahlil qilish hamda atroflicha ochib berishning ayrim yo‘llarini yoritib berish.

Shu jihatdan qaraganda, adabiy ta’lim o‘quvchi yoshlarning fikrinigina emas, balki ularning tuyg‘ularini, qalbini, hissiyotlar olamini ham shakllantirishga ahd qilgan ta’lim jarayonidir. Adabiy ta’lim oldidagi bu vazifalar badiiy asarlarni chuqur tahlil etishni talab qiladi. Ezgu ishlar, ezgu qahramonlardan ibrat chiqarish, ibratlanish, yaxshilarning yaxshiligi, yomonlarning yomonligi asosi va omillarini aniqlash asarlarni o‘rganishda yetakchilik qilishiga, qahramonlarning xarakterli tomonlari, xatti-harakati, gap-so‘zlari tahlilga tortilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, maktabda dunyoviy ta’lim-tarbiya va diniy-ma’rifiy tarbiya uyg‘unlashgan holda olib boriladi hamda axloqiy go‘zallik mezon qilib olinadi.

Quyida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tahlili orqali o‘quvchilarga singdiriladigan diniy- ma’rifiy tushunchalarga qaratmoqchimiz.

Abdulla Qodiriy iymon-e'tiqodli, pokiza tabiat, haqiqatgo'y inson bo'lgan. Bu fazilat-xislatlar uning romanlariga ham ko'chgan, albatta. Yozuvchi va shoirlar asosan o'z dunyosini, his-tuyg'ularini kitobxonga ma'naviy oziqa sifatida taqdim etadi. Abdulla Qodiriy romanlaridagi ana shunday go'zal estetik g'oyalardan biri – iymon-e'tiqod masalasi bugungi kunda qadrlanib- kattalashib, ko'zga aniqroq ko'rinadigan, fikrga quvvat, dilga zavq beradigan holat kasb etmoqda. "O'tkan kunlar" romanidagi ma'naviy-ruhiy jihatidan nisbatan mukammal qahramonlardan biri - Yusufbek hoji obrazidir.

Bu obraz aynan hojiligi e'tibori bilan yuksak maqomda tasvirlanadi. Olloh buyurgan farzi hisoblangan haj amali va asl hojilar qanday bo'lishligi haqidagi tushunchani shu obraz orqali singdirilishi maqsadga muvofiqdir. Hojilik sifati Yusufbekning din arkonlarini to'kis ado etuvchi halol, pokiza bir inson ekanli gini anglatadi, ma'naviy-ruhiy jihatdan aql-zakovati, fahm-farosati, go'zal odobi, muomala-munosabati o'quvchi ko'z oldida nur yuzli siymoni gavdalantiradi. Romanda hoji qatnashgan sahnalar ko'p emas. Ammo Yusufbek siymosining ma'naviy quvvati butun roman borlig'iga nur bag'ishlaydi. Bu qahramonning salobati oz gapiradi, ko'p eshitadi, kam kuladi, musibatdan **darhol ko'zi yoshlanadi**: *"Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas umuman uyichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin uzoq so'zlashib o'tirmaydir... Hojibir necha vaqt so'zlaguchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'p" deydir, gapga tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsabir iljayish bilan kifoyalanib, mundin boshqa so'z aytmaydir..." [2].*

Asar voqealaridagi bir majlis-ziyofatda Yusufbek hoji Yunus Muhammad oxund og'zidan Rasulullоh (sallollohu alayhi vassallam)ning: "*Iza vasadal amru ila g'ayri ahlihi fantazir as-soata"* (ya'ni, agar bir qavmning ishi noahl odamg'a topshirilg'an bo'lsa, bas, o'shal qavmning qiyomatini yaqin bil), degan hadisini eshitib: "*Voy bo'lsin biz badbaxtlar holig'a*", deydi. "*Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi. Yoshim oltmish beshka yetib bir vaqt bo'lsin ibodatimni janobi Haqqa bevosita yo'naltirg'animni va ko'ngil ko'zim ochilib qilg'on sajdamni xotirlay olmayman... Endi mundan keyingi besh kunlik umrim dunyo mojarolaridan etak silkib go'sha'i oxirat tadorikini qilmog'im uchun g'animat ko'rinadir*" [2], - tarzida xulosa chiqarishi ma'rifatli shaxs ekanligini dalillaydi.

Komil inson qiyofasidagi bu qahramon xalqqa ham, o'z e'tiqodiga ham xiyonat etishniistamaydi. Zero, "*xalq Yusufbek hojidanbir zarra yomonliq yoki bo'lmag'ur bir kengash eshitmagan...", "mansab borasida nihoyatda ta'masiz", "xalq manfaatini kuzatkuchi birodam*" ekanligi asar qahramonlari tilidane'tirof etiladi.

Roman sahifalarida Hoji Kumushning ko'zi yorishi arafasida *"xursand va xafaligi noma'lum bir qiyofada "Daloyil" o'qib o'tirgan"* holda tasvirlanadi. Shu

o‘rinda “Daloyil”ning qanday kitobligi, mazmun- mohiyatini izohlash Yusufbek hoji siymosini va ma’naviy-ruhiy dunyosining komilligini to‘kis ochib beradi:

“Daloyil-ul hayrot” muallifi Muhammad Ibn Sulaymon Juzuliydir. Kitobni o‘qish shartlari va odoblari bor, ya’ni kitobni o‘qigan shaxs quyidagi talablarni to‘la-to‘kis ado qilishi kerak:

1. Komil bir shayxdan izn olgan bo‘lishi;
2. Uni o‘quvchi kishi yeyish, ichish, savdo- sotiqda halol bo‘lishi;
3. O‘zi ham, kiyim-kechagi ham toza bo‘lib, uni o‘qishda xatoga yo‘l qo‘ymasligi;
4. Tajvid (to‘g‘ri talaffuz) qoidalariga amal qilishi, duo va tasbehlarning ma’nosini bilishi kerak.

Asarni o‘quvchilarga tushuntirishda davom etar ekanmiz, romanning muqaddimasidagi azon so‘ziga diqqatni jalb qilamiz:

“ 1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir”. Yoki “Otabek bu gal oltinchi qo‘nishda yetdi. Tevarakdan asr azoni (ta’kid bizniki) eshitiladigan vaqtda otdan qo‘ndi...”. Yoki: “U yoq-bu yoqdan shom azoni eshitila boshlagan edi. Ma’lum otliq qutidorning darbozasida otini to‘xtatdi-da, o‘ng oyog‘ini uzangudan uzdi. Shu vaqtda shom namozidan qolmas uchun shoshilib qutidor ham yo‘lakdan chiqib keldi...»

Islom dinimizning muqaddas farzi hisoblangan namozga chorlovchi azon duosi ilohiy kalimalardan biridir. Romanda bu islomiy hodisa namoz tasviri bilan parallel ravishda asar qahramonlari faoliyatida berib boriladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Diniy-ma’rifiy tarbiyani adabiyot darslarida o‘rganiladigan asarlar tahlili orqali singdirish samarali omillardan hisoblanadi. Chunki bu yo‘l “ijtimoiy nasihatlar”dan, zo‘riqishlardan holi jarayon bo‘lib, o‘kuvchi qahramonlar bilan bir havodan nafas oladi, ularning yurak urishlarini eshitgandek bo‘ladi; go‘yo Otabek bilan yonma-yon yuradi, “Siz o‘shami?” degan hayajonli savolni xotira devoriga muhrlab qo‘yadi. Yuzlaridan nur yog‘ilib turgan Yusufbek hojining purhikmat o‘gitlaridan bahra oladi. Kumushning achchiq qismatini ko‘rib, beixtiyor ko‘zlari yoshlanadi. Zaynabga “bechora” deydi. Negaki badiiy asarlarda jon bor, tiriklik bor, umr mohiyati mujassam.

Roman qahramonlari boshidan kechayotgan voqealarning shu tarzda namoz vaqtlari negizida belgilanishi o‘quvchi shuurida dinimizning buyuk farzi hisoblangan namozga nisbatan tabiiy sezim va iymon etiqodning shakllanishiga omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xolbuki, Qodiriy asarlarida, faqat ma’naviyatgagina emas, tafakkurga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatish qudrati mavjuddir. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Qodiriy asarlarini chuqur o‘rganish islom qadriyatlari va madaniyatini to‘g‘ri anglash hamda qabul qilish, o‘quvchilarga islom dinining mazmun- mohiyatini yetkazish uchun ham muhimdir.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda yoshlarni diniy-marifiy jihatdan ilmli qilib tarbiyalashda badiiy asarlar tahlilini chuqur va atroflicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilar his-sezimlariga ta’sir etish qudratiga ega mumtoz asarlarni o‘qib-o‘rganib, ma’naviyatini boyita olishiga imkon va ko‘mak berish zamonaviy ta’lim oldidagi vazifalardan biridir.

Dinimizning farz va amallari, iymon, e’tiqod tushunchalari badiiy asarlar zamirida poetik tasvir va badiiy detallar orqali tasvirlanadiki, adabiyot muallimi bu kabi poetik unsurlarni tahlil jarayonida yoritib berishi samarali omil hisoblanadi. Zero, insonning e’tiqodi buzilsa, har qanday xunrezlik va fitnalarga bosh qo‘shishi mumkinligi yoshlarni ogoh va ma’rifatli qilib tarbiyalash kerakligini anglatadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2011-jild. – 591 b.
2. A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. - T.:”Navro‘z”, 2019. - 386 b.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Til ofatlari kitobi. - T.: ”Sharq”, 2014. - 175 b.
4. Ahmad Xodiy Maqsudiy. Ibodati islomiya. – T.: ”Mehnat”, 2011. - 102 b.